

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2019 yil yanvar-dekabrda Xorazm viloyati bo'yicha yalpi hududiy mahsulot (keyingi o'rinlarda YaHM) hajmi joriy narxlarda 19136,5 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2018 yilning mos davriga nisbatan 7,7%ga o'sdi.

2019 yil yanvar-dekabr oylari yakunlari bo'yicha aholi jon boshiga YaHM 10337,4 ming so'mni tashkil etdi va bu ko'rsatkich o'tgan yilga nisbatan 5,9% ga oshdi.


O'zbekiston Respublikasi bo'yicha YalMni shakllantirishda Xorazm viloyatining qo'shgan xissasi 3,7%ni tashkil etdi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YaHMni ishlab chiqarish

	Mlrd. so'm		2018 yil yanvar-dekabr nisbatan, % da
	2018 yil yanvar-dekabr	2019 yil yanvar-dekabr	
I. YaHM	15 242,5	19 136,5	107,7
<i>shu jumladan:</i>			
Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	14 746,5	18 294,6	107,6
Mahsulotlarga sof soliqlar	496,0	841,9	110,3
II. Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	14 746,5	18 294,6	107,6
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	7 472,9	8 728,3	105,8
Sanoat (qurilishni qo'shgan holda)	2 819,6	3 885,9	115,6
sanoat	1 982,4	2 715,0	111,7
qurilish	837,2	1 170,9	124,9
Xizmatlar	4 454,0	5 680,4	105,7
savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	853,2	1 043,7	106,9
tashish va saqlash, axborot va aloqa	952,5	1 050,8	103,4
boshqa xizmat tarmoqlari	2 648,3	3 585,9	106,1

Hudud iqtisodiyotining asosiy tarmoqlarida kuzatilgan o'sish sur'atlari YaHM o'sishida asosiy omil bo'lib xizmat qildi. Jumladan, qurilish – 124,9% (YaHM tarkibidagi ulushi 6,4%), sanoat – 111,7% (14,8%), xizmatlar-105,7% (31,1%), Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi -105,8% (47,7%)ni tashkil qildi.

2019 yil yanvar-dekabrda YaHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'sish sur'atlari




Iqtisodiy faoliyat turlari

Hudud iqtisodiyotining barcha tarmoqlarida yaratilgan yalpi qo'shilgan qiymat (YaQQ) hajmi umumiy YaHMning 95,6%ni, mahsulotlarga sof soliqlar esa 4,4%ini tashkil etdi.


Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi YaHMning tarmoqlar bo'yicha tarkibidagi ulushi 3,0 punktga kamaydi va hisobot yilida 47,7%ni tashkil etdi. Sanoat (qurilishni qo'shgan holda) tarmog'ining ulushi 2,1 punktga oshdi va 21,2%ni tashkil etdi. Xizmatlar sohasining YaHM tarkibidagi ulushi 2019 yil yanvar-dekabr oylarida 31,1%ni tashkil etdi va 2018 yilning mos davri (30,2%) bilan taqqoslanganda 0,9 punktga ko'paydi.

Yalpi hududiy mahsulotning tarmoqlar bo'yicha tarkibi (jamiga nisbatan foizda)

2018 yil yanvar-dekabr



2019 yil yanvar-dekabr




- Mahsulotlarga sof soliqlar
- Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati
- Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi
- Sanoat (qurilishni qo'shgan holda)
- Xizmatlar


Savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning YaHM tarkibidagi ulushi – 5,7%ni (2018 yil yanvar-dekabr 5,8%), tashish va saqlash, axborot va aloqa – 5,7%ni (6,5%), xizmat ko'rsatuvchi boshqa tarmoqlar – 19,7%ni (17,9%) tashkil etdi.

Xizmatlar sohasining yalpi qo'shilgan qiymati tarkibi (jamiga nisbatan foizda)

2018 yil
yanvar-dekabr



2019 yil
yanvar-dekabr



- savdo, yashash va ovqatlanish bo`yicha xizmatlar
- tashish va saqlash, axborot va aloqa
- xizmat ko`rsatuvchi boshqa tarmoqlar

Statistika faoliyatini tashkil etish va
yig'ma axborot-tahliliy ishlar bo'limi
Nashr uchun mas'ul: M.Sultanmuratov
Tel: (0-371) 230-87-65